

2025-yil 14-iyun kuni soat 12.00 da Tursunaliyeva Muxlisaxonning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2025-YIL 14-IYUN KUNI SOAT 12.00 DA O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI**

**PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Tursunaliyeva Muxlisaxon Voxidjon qizining 00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta'limi) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

*Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,
2-qavat, majlislar zalida 12.00 da boshlanadi.*

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 14-iyun kuni soat 10.00 Xudayarova Zaynabning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2025-YIL 14-IYUN KUNI SOAT 10.00 DA O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

**Xudayarova Zaynab Rajabovnaning 00.01 – Teatr san'ati
ixtisosligi bo'yicha "O'zbek milliy musiqali teatr aktyorining
shakllanishida xalq badiiy ijodiyotining o'rni" mavzusidagi
san'atshunoslik bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy
darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi
muhokamasi.**

*Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A"
binosi
2-qavat, majlislar zalida 10.00 da boshlanadi.*

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 2-iyun Inatullayev Baxromjonning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2025-YIL 2-iyun kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi
PhD. 08/28.08.2020. san. 121.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash majlisi bo'lib o'tadi**

KUN TARTIBI:

Inatullayev Baxromjon Boqijonovichning 00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida etnik mansublik va integratsiya jarayonlari" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 12.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-yil 2-iyun Karimova

Muqaddasning dissertatsiyasi muhokamasi.

E'LON

**2025-YIL 2-IYUN KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH**

MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Karimova Muqaddas Abdisamatovnaning 17.00.01 – Teatr san'ati
ixtisosligi bo'yicha "Folklor-etnografik tomoshalar
rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi
san'atshunoslik bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy
darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi
muhokamasi.

*Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A"
binosi,*

2-qavat, majlislar zalida 10.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

"Muhammad Yusuf Vatan kuychisi"

Bugun yurtimiz bo'ylab O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 71 yilligi munosabati bilan ko'plab ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Adiblar xiyobonida joylashgan shoir haykali poyida "Muhammad Yusuf Vatan kuychisi" deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida shoir haykali poyiga gulchambarlar qo'yilib, hurmat bajo keltirildi.

Shundan so'ng O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rribbosari G'ayrat Majid, shoirning rafiqasi Nazira as-Salom va boshqalar so'zga chiqib, Muhammad Yusuf hayoti va ijodining ibrat bo'larli jihatlari, uning insoniy fazilatlari hamda Muhammad Yusuf ijodining o'zbek she'riyati tarixidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritdi hamda unga bog'liq bo'lgan xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

Shundan so'ng institutda ta'sis etilgan "Muhammad Yusuf" ko'krak nishoni o'z egalariga taqdim etildi.

Ular bilan tarnishing:

O'zbek va jahon filologiyasi kafedrasi mudiri, dotsent Ma'rufova Zulfiya Nabiyevna, Kino, televide niye va radio san'ati fakulteti dekani, dotsent Xidirova Kamola Sodikovna, "Vokal" kafedrasi dotsenti Sharipov Azamat Shonazarovich, Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i Tuyg'unov Doniyor Mirzayevich, "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi Kozimova Zumriniso Ismoilovna, Xalq ijodiyoti fakulteti Yoshlar bilan ishslash bo'yicha dekan o'rribbosari Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li, "Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik" mutaxassisligi 2-bosqich tayanch doktoranti Qolqanotov Asilbek Nazarbay uli, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qorako'l tuman bo'linmasining Ma'rifat targ'ibotchilari Eshshiyev Bobomurod Omonovich va Subhonova Ruqiya Usmonovna, Madaniyat va san'at muassasalarini

tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi Nabiyeva Malika Orif qizi.

Shundan so ‘ng tadbirning badiiy qismiga navbatberildi. Unda institut professor-o’qituvchilari tomonidan Muhammad Yusufning she’rlaridan namunalar o’qildi hamda uning so’zlari asosida yaralgan qo’shiqlardan namunalar ijro etildi.

O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining birinchi o’rinnbosari Avazxon Tadjixanov raisligida navbatdagi onlayn (ZOOM platformasi orqali) yig’ilish bo’lib o’tdi.

Unda Madaniyat vazirligi tegishli bo’lim boshliqlari hamda davlat teatrlari direktorlari va bosh rejissyorlari bilan birqalikda O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamda prorektorlar, Teatr san’ati fakulteti dekani va tegishli kafedra mudirlari ishtirok etdi.

Yig’ilishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida” 2024-yil 22-noyabrdagi 399-son qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan teatrlar bilan ta’lim tashkilotlarining

uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga maqsadli qabul kvotalari teatrlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib belgilash, institutning 3 va 4-bosqich bakalavr hamda magistratura talabalarining haftada kamida ikki kun teatrlarda amaliy mashg'ulotlar o'tashini yo'lga qo'yish va boshqa bir qator masalalar muhokama qilindi.

Dastlab Avazxon Tadjixanov "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror sohaning rivoji uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etganini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga, bugungi kunda nafaqat teatrlarda balki barcha madaniyat muassasalarida, oliy ma'lumotga ega bo'lgan malakali yosh mutaxassislarga ehtiyoj juda yuqori ekanligini, buning yechimi esa, oliy ta'lim muassasalarida, xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan yosh kadrlarni amaliyotga va keyingi bosqichda ishga jalb qilish, ularni mehnat bozoriga tayyor kadrga sifatida borishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish ekanligini qayd etdi.

Nodirbek Sayfullayev bugungi kunda Davlatimiz Rahbari tomonidan oliy ta'lim sohasi vakillari oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri bu dual ta'lim ekanligini, bunda talaba amaliyot yoki teatrlarda tashkil etilgan o'quv jarayonlarida ishtirok etishi bilan bir qatorda, kamida 0.25 shtat birligida faoliyat olib borishi lozimligi, bu borada teatrlardagi bo'sh vakant o'rirlarga yuqori kurs talabalarni jalb etilsa, ular institutni tamomlagunga qadar mutaxassis sifatida shakllanishi, mehnat bozoridagi talablarga to'liq javob beradigan kadr bo'lib yetishishilariga zamin yaratishini ta'kidladi. Shuningdek institut bilan teatrlar hamkorligini yanada kuchaytirish borasida ham fikrlarini bildirib o'tdi.

Yig'ilish ochiq muloqot tarzida davom etdi hamda teatr direktorlari ham mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohaza va takliflarini bayon qildi.

Nodirbek Sayfullayev ana shunday iste'dodli talabalardan “Xush kayfiyat” respublika ko'rik-tanlovi sovrindori Teatr san'ati fakulteti Musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim bitiruvchi kurs talabasi Bahodir Fozilov bilan uchrashdi.

Hech sir emaski, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ayni paytda o'z ijodi bilan tanilib ulgurgan hamda respublika va xalqaro tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lgan bir qancha iqtidor egalari tahsil olishmoqda.

Bugun institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ana shunday iste'dodli talabalardan “Xush kayfiyat” respublika ko'rik-tanlovi sovrindori Teatr san'ati fakulteti Musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim bitiruvchi kurs talabasi Bahodir Fozilov bilan uchrashdi.

Uchrashuvda institut rektori Bahodir Fozilovni “Xush kayfiyat” ko'rik-tanlovida faxrli 2-o'rin sohibi bo'lgani bilan yana bir bor muborakbod etib, kelgusi ijodiga ulkan zafarlar tiladi.

Shuningdek, kelajakda yoshlar tarbiyasiga oid, ularni ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan kontentlar yaratish, monospektakllar sahnalashtirish lozimligini, institut rahbariyati uning yangi ijodiy loyihalarini qo'llab-quvvatlashga doimo tayyor ekanligini ma'lum qildi.

O'z o'rnida, talaba ham bunday e'tibordan mamnun ekanligini bildirib, kelgusida o'z ijodida, albatta, bu tavsiyalarga amal qilishini aytib o'tdi.

Suhbat jarayonida Bahodir Fozilov institutning "O'quv teatrida" faoliyat yuritish istagini bildirdi hamda uning bu istagi ham qo'llab-quvvatlandi.

Nodirbek Sayfullayev
"Dramatik teatr va kino san'ati" ta'lim yo'naliishi 4-bosqich talabalari tomonidan
"Aktyorlik mahorati" fanidan diplom ishi sifatida sahnalashtirilgan "Halala" spektakli namoyishida ishtirok etdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev "Dramatik teatr va kino

san'ati" ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabalari tomonidan "Aktyorlik mahorati" fanidan diplom ishi sifatida sahnalashtirilgan "Halala" spektakli namoyishida ishtirok etdi.

Rashod Nuri Guntekining «Halala» komediyasi turk adabiyotida muhim o'rinni tutadi. Ushbu asar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni kulgu orqali yetkazib, tomoshabinni chuqrifikrlashga undaydi.

Asarni kurs rahbari, O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Nodira Mahmudova sahnalashtirgan bo'lib, "Aktyorlik mahorati" o'qituvchilari Jamshid Sobirov, Qaxramon Madrimov, Fozil Nazarov, Feruza Karayeva, Sahna nutqi fani o'qituvchisi san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor Go'zal Xoliqulova, Plastika va pantamima fani o'qituvchisi katta o'qituvchi Sador Mannonov, Sahna harakati fani o'qituvchisi katta o'qituvchi Rahimjon Do'sanov, Raqs fani o'qituvchisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Narziddin Shermatov.

Spektakl soha mutaxassislari tomonidan iliq kutib olinib, professional rejissura, zamonaviy uslubdagi aktyorlik ijrosi, sahna madaniyati, ssenografiya, musiqa va yoritish bezagi alohida e'tirof etildi.